

№459, 12-yanvar, 2022 y.

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning
ishlanmalari bo'yicha

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2022

Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 11-yanvar holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	311 037 672	(+ 2 171 182)
Sog'ayganlar soni	-	260 688 620	(+ 1 079 350)
Vafot etganlar soni	-	5 512 402	(+ 5 166)

Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	62 661 272	(+ 673 837)
	Hindiston	-	35 875 790	(+ 167 348)
	Braziliya	-	22 558 695	(+ 34 788)
	Buyuk Britaniya	-	14 617 314	(+ 142 224)
	Fransiya	-	12 205 114	(+ 93 896)
	Rossiya	-	10 666 679	(+ 15 830)
	Turkiya	-	10 043 688	(+ 65 236)
	Germaniya	-	7 570 248	(+ 38 618)
	Italiya	-	7 554 344	(+ 101 762)
	O'zbekiston	-	201 155	(+ 425)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2022 y. 10-yanvar holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 035 361	5 035
Andijon viloyati	3 825 482	10 577
Buxoro viloyati	2 227 668	6 468
Jizzax viloyati	1 413 593	2 213
Qashqadaryo viloyati	3 022 109	12 453
Navoiy viloyati	1 305 575	1 996
Namangan viloyati	3 767 174	9 146
Samarqand viloyati	4 804 019	30 054
Surxondaryo viloyati	3 186 834	11 572
Sirdaryo viloyati	866 227	1 849
Toshkent viloyati	3 773 771	9 226
Farg'ona viloyati	4 364 989	11 615
Xorazm viloyati	2 396 690	9 448
Toshkent sh.	2 959 799	19 192
Jami	39 949 291	140 844

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>



AQSHda COVID-19 sababli kasalxonaga yotqizilganlarning rekord soni qayd etildi



10-yanvar, dushanba kuni AQSHda COVID-19 bilan kasalxonaga yotqizilgan bemorlar soni rekord darajadagi 132 646 nafar bemorga yetdi, deb xabar bermoqda Reuters axborot agentligi. COVID-19 bilan kasallanganlar soni bo'yicha avvalgi antirekord 2021-yilning yanvarida AQSHda o'rnatilgan – shu kuni 132 051 kishi kasalxonaga yotqizilgan edi. Biroq, CNN ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yil yanvar oyida maksimal ko'rsatkich 142 ming bemorni tashkil etdi [2].

Kasalxonalarda bemorlar sonining asosiy o'sishi Illinoys, Men, Merilend, Missuri, Ogayo, Pensilvaniya, Vermont, Virjiniya, Viskonsin shtatlarida, shuningdek, Vashington, Puerto-Riko va AQSH Virjiniya orollarida kuzatildi. So'nggi uch hafta ichida "Omicron" shtammi mamlakatda faol tarqala boshlagani va dominant bo'lgani sababli kasalxonaga yotqizilgan bemorlarning soni ikki baravar ortdi.



"Omicron" kasallikning unchalik og'ir bo'lmagan holatlarni keltirib chiqarishiga qaramay, uning tez tarqalishi va yuqtirganlar sonining ko'payishi sog'liqni saqlash tizimiga ortiqcha yuklanish bo'lishi mumkin, deya qayd etadi Reuters mutaxassislarga tayanib [3].




Agentlik ta'kidlaganidek, haftasiga o'rtacha kunlik kasallanganlar soni 704 ming kishini tashkil etdi. AQSH va boshqa mamlakatlarda kasallanish statistikasini yurituvchi Jons Xopkins universiteti 4-yanvar kuni Amerika Qo'shma Shtatlarida bir million odam koronavirus bilan kasallangani haqida xabar berdi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti

9-yanvar kuni mamlakatda rekord darajadagi o'sishni, 871 213 kishi kasallanganini qayd etdi [4].

Pfizer "Omicron" shtammiga qarshi vaksinaning tayyor bo'lish sanasini e'lon qildi

Amerikaning Pfizer kompaniyasi tomonidan "Omicron" shtammi keltirib chiqaradigan koronavirus infeksiyasiga qarshi ishlab chiqilayotgan vaktsina 2022-yil mart oyida tayyor bo'lishini ma'lum qildi. Bu haqda 10-yanvar kuni Amerikaning CNBC telekanali korporatsiya bosh direktori Albert Burlaga tayangan holda xabar berdi [5].

Tashkilot rahbari SARS-CoV-2 ning ko'rsatilgan versiyasi uchun alohida vaktsina zarurligi haqida aniq ma'lumot yo'qligini ta'kidladi. Shu bilan birga, Burlaning so'zlariga ko'ra, vaksinaning "ma'lum miqdordagi dozalari" allaqachon chiqarila boshlangan. Uning qo'shimcha qilishicha, kompaniya yangi dori-darmonlarni potensial talabni qondirish uchun zaxiraga saqlamoqda [6, 7].



Finlyandiyada koronavirus infeksiyasidan himoya qiluvchi molekula yaratildi

Xelsinki universiteti olimlari insonlarni koronavirus yuqishidan himoya qiluvchi molekulani ishlab chiqdi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, molekula sakkiz soat davomida bemorlarni himoya qiladi va vaksinalardan farqli o'laroq, molekula ta'siri uning qo'llanilishidan so'ng darhol boshlanadi [8].



"Olimlar TriSb92 yangi molekulasini joriy qildilar, tajribalarga ko'ra, hatto infeksiya xavfi yuqori bo'lgan holatlarda ham kamida sakkiz soat davomida koronavirus infeksiyasidan himoya qiladi", — deyiladi universitet saytida.



Sichqonlar ustida olib borilgan tajribalar davomida olimlar molekula hayvonlarni himoya qilgan, tanasiga yuborilmagan sichqonlarning qolgan qismi esa koronavirus bilan kasallangan degan xulosaga kelishdi. Molekula hayvonlarning tanasiga nazal inyeksiya yo'li bilan yuborilgan. Uning ta'siri, xususan, virusli zarrachaning yuzasida oqsilni

bloklashiga asoslangan. Bugungi kunda koronavirusning turli shtammlari TriSb92 ta'siriga sezgir bo'lishi mumkin, deydi tadqiqotchi Anna Mäkela. Shu bilan birga, vaksina koronavirusga qarshi foydalaniladigan vaksinalar bilan raqobatlashish uchun emas, balki ularning ta'sirini to'ldirish uchun yaratilgan, deb ta'kidlashdi olimlar [9, 10].

Avvalroq Massachusetts texnologiya instituti va Garvard universiteti olimlari bemorlarda 90 daqiqada koronavirusni aniqlay oladigan maxsus yuz niqobini yaratgani xabar qilgan edi. Bunga qadar xuddi shu kabi niqob Fransiyaning BioSerenity kompaniyasi mutaxassislari tomonidan ham ishlab chiqilgan edi [11].



Daniya olimlari grippga qarshi emlash COVID-19 infeksiyasi xavfiga ta'sirini aniqladilar

Daniya olimlari The Journal of Infectious Diseases ilmiy jurnalida grippga qarshi emlangan va emlanmaganlar orasida COVID-19 ning infeksiya xavfi va klinik natijalarini solishtirgan birinchi tadqiqot natijalarini chop etdi. Tadqiqotda Daniyadan 46 mingdan ortiq tibbiyot xodimlari ishtirok etdi [12].



Avvalroq, COVID-19 bemorlarining immun reaksiyalarini tahlil qiluvchi laboratoriya tadqiqotlari grippga qarshi vaksina koronavirusdan ma'lum darajada himoya qilishi mumkinligini ko'rsatgan edi. Biroq, ba'zi olimlar grippga qarshi emlash SARS-CoV-2 yuqtirish xavfini oshirishi yoki kasallikning holatini yomonlashtirishi mumkinligidan xavotirda edilar.

Kopengagen universiteti kasalxonasi tibbiyot fanlari doktori Yonas Xenrik Kristensen boshchiligidagi daniyalik olimlar grippga qarshi emlash COVID-19 infeksiyasi xavfiga ta'sirini tekshirishga qaror qilishdi.

Mualliflar 2020-yil davomida SARS-CoV-2 ga antitanalar uchun uch marta sinovdan o'tkazilgan hamda, grippga qarshi emlash haqida ma'lumotga ega bo'lgan Kopengagen poytaxti va Zeeland mintaqasidagi 46 112 tibbiyot xodimining ma'lumotlarini qayta ishladilar. Ularning 3379 nafari aniq belgilar bilan COVID-19 bilan kasallangan yoki kasalxonaga yotqizilgan.

Yoshi va yon kasalliklar mavjudligiga qarab, olimlar grippga qarshi vaksinada koronavirus infeksiyasini yuqtirish xavfi emlanmagan ishtirokchilarga nisbatan 0,93-1,01 ekanligini aniqladilar. Semptomatik kurs va kasalxonaga yotqizish xavfi mos ravishda 1,02-1,03 va 0,89-0,91 ni tashkil qiladi. 65 yoshdan oshgan 1841 ishtirokchining tanlangan kichik guruhida emlanganlar uchun infeksiya xavfi emlanmaganlarga nisbatan 0,93-0,99 ni tashkil etdi va kasalxonaga yotqizish xavfi birlik darajasida edi.

Bundan mualliflar grippga qarshi emlash SARS-CoV-2 yuqish xavfi yoki COVID-19 kasalligining og'ir holatiga ta'sir qilmaydi degan xulosaga kelishdi. Ushbu natijalar PCR testi ma'lumotlariga yoki serologik tadqiqotlarga asoslangan oldingi tadqiqotlar natijalariga mos keladi [13].



1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (11.01.2022)
2. Omicron pushes U.S. COVID hospitalizations toward record high // <https://www.reuters.com/world/us/cdc-chief-says-us-covid-cases-likely-have-not-yet-peaked-2022-01-07/> (11.01.2022)
3. В США зафиксировано рекордное количество госпитализаций с COVID-19 // <https://expert.ru/2022/01/11/v-ssha-zafiksirovano-rekordnoye-kolichestvo-gospitalizatsiy-s-covid-19/> (11.01.2022)
4. Global Tracking Map: COVID-19 Cases and Data Visualization // <https://coronavirus.jhu.edu/map.html> (11.01.2022)
5. Pfizer CEO says omicron vaccine will be ready in March // <https://www.cnbc.com/2022/01/10/covid-vaccine-pfizer-ceo-says-omicron-vaccine-will-be-ready-in-march.html> (11.01.2022)
6. Pfizer CEO announces Omicron vaccine to be ready in March // <https://www.independent.co.uk/news/world/americas/pfizer-omicron-vaccine-covid-update-b1990113.html> (11.01.2022)
7. В Pfizer назвали сроки готовности своей вакцины против штамма "Омикрон" // <https://regnum.ru/news/society/3472366.html> (11.01.2022)
8. Nenään sumutettava "biologinen maski" voi suojata koronatartunnalta tuntien ajan // <https://www.sttinfo.fi/tiedote/nenaan-sumutettava-biologinen-maski-voi-suojata-koronatartunnalta-tuntien-ajan?publisherId=3747&releaseId=69929144> (11.01.2022)
9. В Финляндии создали молекулу для защиты от заражения коронавирусом // <https://www.kommersant.ru/amp/5157013> (11.01.2022)
10. Вирусолог из Хельсинки разработала спрей, защищающий от заражения коронавирусом // <https://plus-one.ru/news/2022/01/10/virusolog-iz-helsinki-razrabotala-sprey-zashchishchayushchiy-ot-zarazheniya-koronavirusom> (11.01.2022)
11. Финские ученые создали молекулу для защиты от Covid-19 // <https://www.tatar-inform.ru/news/finskie-ucenye-sozdali-molekulu-dlya-zashhity-ot-covid-19-5849908> (11.01.2022)
12. Effect of influenza vaccination on risk of COVID-19 – A prospective cohort study of 46,000 health care workers // <https://academic.oup.com/jid/advance-article/doi/10.1093/infdis/jiac001/6497955> (11.01.2022)
13. Ученые выяснили, как вакцинация от гриппа влияет на риск заражения COVID-19 // <https://ria.ru/20220110/privivka-1767144098.html> (11.01.2022)



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022